



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

OLIV TA'LIMNING DAVLAT TA'LIM STANDARTI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRINING
BUYRUG‘I

**“OLIIY TA‘LIMNING DAVLAT TA‘LIM STANDARTI. ASOSIY QOIDALAR”
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT STANDARTINI TASDIQLASH
TO‘G‘RISIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga olindi,
hisob raqami 43]**

(O‘z DSt 3556:2021)

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi **Qonuni**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **qaroriga** muvofiq buyuraman:

1. “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar” O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir A. TOSHKULOV

Toshkent sh.,
2021-yil 19-oktabr,
35-2021-son

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi 35-2021-son
buyrug‘iga
ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT STANDARTI

Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar

O‘z DSt 3556:2021

Kirish

Mazkur davlat standarti O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi **Qonuni** va boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek YUNESKO (UNESCO) tomonidan joriy qilingan “Ta‘limning xalqaro standart klassifikatsiyasi” (TXSK 2011) va “TXSK: Ta‘lim va kasbiy tayyorlash sohalari”ga (TXSK-S 2013) muvofiq ishlab chiqilgan.

1. Umumiy qoidalar

1. “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar” (bundan buyon matnda Davlat ta‘lim standartlari deb yuritiladi):

kadrlar tayyorlash sifatiga, ta‘limning mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablarni;
ta‘lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiy malakaviy talablarni;
o‘quv yuklamasining hajmini;
ta‘lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda mexanizmini belgilaydi.

2. Davlat ta‘lim standartlari o‘quv jarayonini, ta‘lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli hujjatlarni (bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari va boshqalar) ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

3. Davlat ta‘lim standartlari oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo‘ysunuv va mulkchilik shakllaridan qat‘iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining davlat ta‘lim standartlari asosida kadrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun majburiydir.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

2. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar

O'z DSt 1.0:1998 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar;

O'z DSt 1.8:2009 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Tavsiyanomalar. Asosiy qoidalar;

O'z DSt 1.9:1995 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Tarmoq standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

3. Atamalar va ta'riflar

Mazkur davlat standartida quyidagi atamalar qo'llaniladi:

oliy ta'lim — uzluksiz ta'limning oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi ikki bosqichdan iborat (bakalavriat va magistratura) mustaqil turi;

bakalavriat — oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir;

magistratura — tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir;

oliy ma'lumot darajasi — shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan o'quv rejalari va o'quv dasturlarini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda o'zlashtirishi natijasi;

oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom) — akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning o'quv rejalari va o'quv dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi;

oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori — oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati;

malaka talablari — oliy ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar;

o'qitishning me'yoriy muddati — ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat;

o'quv fanlari bloki — o'quv rejalari belgilangan fanlar majmualari, qoida tariqasida "majburiy fanlar" bloki va "tanlov fanlari" blokiga ajratiladi;

o'quv reja — oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddati uchun belgilaydigan hujjat;

o'quv yuklama — o'quv dasturlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan akademik soatlar hajmi;

o'quv fani — ta'lim jarayonida muayyan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardan saralab olingan bilim va ko'nikmalar tizimi;

o'quv yili — oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2021/2022 o'quv yili;

o'quv semestri — oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi. Ayrim hollarda o'quv semestri o'quv yilining uchdan bir qismini tashkil etishi mumkin;

o'quv dasturi — ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat;

malaka amaliyoti — o'quv jarayonining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikma hosil qilish, o'quv rejalari va o'quv dasturlarning ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi;

yakuniy davlat attestatsiyasi — bakalavr yoki magistr akademik darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartib asosida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va o'quv dasturlarining o'zlashtirish darajasi hamda sifatini baholash jarayoni;

o'qitish sifatini nazorat qilish — ta'lim oluvchining bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash;

ta'lim sifatini nazorat qilish — o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish;

oliy ta'lim muassasasi attestatsiyasi — davlat ta'lim standartlariga muvofiq oliy ta'lim muassasasi faoliyatini baholash va kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli;

oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi — oliy ta'lim muassasasi faoliyati darajasini davlat ta'lim standartlarining mezon va talablariga javob berishi hamda bitiruvchilar oliy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni berish huquqining davlat tomonidan e'tirof etilishi;

tajriba orttirish (ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot muassasasida, xorijda tajriba orttirish) — magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va o'quv dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrnlarni eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, mudofaa, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot olib borishi.

4. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalari va o'quv dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

4.1. Bakalavriat

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim bilan uzviylik va uzluksizligi ta'minlangan holda, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalar tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki va tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki kiradi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'quv rejalardagi bloklar tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quv fanlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ta'lim jarayoni o'quv rejalari muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi.

O'quv rejalar va o'quv dasturlar kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqiladi. Ayrim (zarur) hollarda o'quv rejalar va o'quv dasturlar reyting (baholash) tizimi asosida ishlab chiqilishi mumkin.

4.1.1. O'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar:

majburiy fanlar bloki fanlarni chuqur o'zlashtirilishini taqozo etadi va ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini boyitish, ta'lim yo'nalishi va sohaga oid zarur fundamental bilimlar, kasbiy ko'nikma, uquv va kompetensiyalarni shakllantirishi, bitiruvchiga tanlangan yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish hamda muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki bakalavriat yoʻnalishi boʻyicha taʼlim oluvchilar qoʻshimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va koʻnikmalarni oʻzlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengayishini taʼminlashi, taʼlim trayektoriyalariga muvofiq kasbiy bilim va malakalarni oʻzlashtirishga imkon yaratishi lozim.

4.1.2. Bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari malaka amaliyotlariga qoʻyiladigan umumiy talablar.

Taʼlim oluvchilar kasbiy koʻnikmalarni mukammal egallashi uchun oʻquv rejalar va muayyan fanlarning oʻquv dasturlarida oʻquv (tanishuv), ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) va bitiruv oldi malaka amaliyotlari nazarda tutilishi shart.

Amaliyotlar bakalavriat taʼlim jarayonining majburiy qismi boʻlib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy koʻnikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yoʻnaltiriladi.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlari oʻtkaziladi:

oʻquv (tanishuv) amaliyoti — iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar boʻyicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uygʻunlashtirish, tegishli amaliy koʻnikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti — ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) kasbiy koʻnikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishini tayyorlash uchun maʼlumot toʻplash va tizimlashtirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot — kasb taʼlimi yoʻnalishlari uchun qoʻllaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

Taʼlim yoʻnalishlarining oʻziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qoʻllanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi oʻquv reja va oʻquv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilgʻor korxonasi, tashkilot va muassasalari, xorijiy va qoʻshma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, taʼlim, tibbiyot, madaniyat va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) obyektlarida va boshqalarda oʻtkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, oʻtkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash oliy taʼlim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

4.2. Magistratura

Magistratura mutaxassisliklarining oʻquv rejaları va oʻquv dasturlari mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlangʻich bosqichi sifatida mutaxassislik boʻyicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni nazarda tutgan holda shakllantiriladi.

Oliy taʼlim magistratura mutaxassisliklarining oʻquv rejaları va oʻquv dasturlari bakalavriat taʼlim yoʻnalishlarining oʻquv rejaları va oʻquv dasturlari bilan uzviylik va uzluksizligini taʼminlagan holda oliy taʼlimning davlat taʼlim standartlari, magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. Oʻquv rejalar tarkibiga oʻzlashtirilishi majburiy boʻlgan fanlar (majburiy fanlar) bloki, tanlab oʻzlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki va ilmiy faoliyat bloki kiradi.

Taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning oʻziga xos xususiyatlariga muvofiq oʻquv rejalaridagi bloklar tarkibi oʻzgartirilishi mumkin.

Magistratura mutaxassisliklarining oʻquv rejaları va oʻquv dasturlarini oʻzlashtirishda taʼlim oluvchilar auditoriya mashgʻulotlari bilan bir qatorda oʻquv fanlari boʻyicha mustaqil mashgʻulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Magistratura mutaxassisliklarining oʻquv jarayoni oʻquv rejalariga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi (magistrlik dissertatsiyasining himoyasi) bilan tugallanadi.

4.2.1. Oʻquv rejaning oʻquv fanlari bloklari mazmuniga qoʻyiladigan minimal talablar:

majburiy fanlar bloki ilmiy tadqiqot metodologiyasi, ilmiy izlanish va tahlil, empirik va nazariy tadqiqot usullari, maxsus fanlarni oʻqitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, taʼlimning zamonaviy usullari, mutaxassislikka doir dolzarb va chuqur ilmiy, metodologik, ilmiy-texnik,

texnologik bilim, uquv, ko'nikma va kompetensiyalarni ta'lim oluvchilarda shakllantirishi hamda muayyan doktorantura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki mutaxassislik bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda ilmiy, pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq magistr darajasidagi kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

ilmiy faoliyat bloki ilmiy-tadqiqotlar nazariyasi va amaliyoti o'zlashtirilishini, ta'lim oluvchilar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Bunda:

ilmiy-tadqiqot amaliyoti ta'lim oluvchilar mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi, ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, zamonaviy axborot bazalarini qo'llash, ilmiy maqolalar va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga doir bilim, uquv va ko'nikmalarni shakllantirishi lozim;

ilmiy-pedagogik amaliyoti zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi, o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etishga doir kompetensiya va ko'nikmalarni hosil qilishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot amaliyoti taqozo etganda yakka tartibda ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tajriba orttirish jarayoni tashkil etiladi. Bunda tajriba orttirish jarayoniga yo'llangan ta'lim oluvchi o'quv jarayoni jadvalini yakka tartibdagi ish rejasi asosida bajarishi ko'zda tutiladi.

tajriba orttirish ta'lim oluvchilarning ilmiy-tadqiqot olib borishi, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, muayyan soha va tarmoqdagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishishi, amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllanishi, kasbga samarali moslashuvini ta'minlashi lozim.

4.2.2. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalar ta'lim davrining to'liq me'yoriy muddati uchun (birinchi kursdan yakuniy kursgacha) ishlab chiqiladi va bu davrda ularga o'zgartirish kiritish, ularni bekor qilish, o'rniga boshqa o'quv reja ishlab chiqib tatbiq etishga yo'l qo'yilmaydi.

5. Bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarining asosiy qoidalari

5.1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan talablar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarida bayon etiladi.

“Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi” (TXSK 2011)ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida bakalavriat 6-malaka darajasiga, magistratura 7-malaka darajasiga mansubdir.

Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil samarali mehnat faoliyatini yuritishini ta'minlashi hamda tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish imkonini berishi lozim.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari mutaxassislik bo'yicha magistr akademik darajali shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati bilan samarali shug'ullanishini ta'minlashi, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limda (tayanch doktorantura, mustaqil izlanuvchi) tahsil olish imkonini berishi lozim.

5.2. Bakalavr va magistr larni tayyorlash oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturi asosida kunduzgi, kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi) va zarur hollarda masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi

asosida amalga oshiriladi. Ayrim (zarur) hollarda ta'lim jarayoni reyting (baholash) tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin.

O'quv dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bakalavriat ta'lim oluvchilariga "bakalavr" akademik darajasi, magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan magistratura ta'lim oluvchilariga "magistr" akademik darajasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjatlar beriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlar ("Double degree") asosida ham amalga oshiriladi. Bunda ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga tayangan holda mahalliy yoki mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan kelishuv (shartnoma)da belgilangan talablar asosida tuziladigan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.3. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining ta'limni davom ettirish imkoniyatlari:

bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining bitiruvchilari magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'qishni davom ettirish huquqiga ega. Muayyan bakalavriat yo'nalishlari uchun o'qishni davom ettirish bo'yicha magistratura mutaxassisliklarining ro'yxatini oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi belgilaydi;

magistratura mutaxassisliklarining bitiruvchilari tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik institutlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

6. O'quv yuklamasining hajmi

6.1. Bakalavriat

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining hajmi bir o'quv yili uchun 60 kredit, bir semestr uchun 30 kredit qilib belgilanadi. 1 kredit 30 akademik soat o'quv yuklamasiga tengdir.

Reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasalari uchun barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 akademik soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining hajmi haftasiga:

kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 32 akademik soat oraligida;

reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 36 akademik soat oraligida belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki) o'qish shakli uchun bir haftada odatda besh kun, auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 20 soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (sirtqi, maxsus sirtqi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining hajmi ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shaklining kamida 30% etib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun o'qishning me'yoriy muddati quyidagicha taqsimlanadi:

O'qish muddati*	Haftalar soni	Kreditlar miqdori	Akademik soatlar miqdori
3 yil	152	180	5 400
4 yil	204	240	7 200
5 yil	256	300	9 000
6 yil	308	360	10 800

* Kunduzgi o'qish shakli tayanch sifatida olinadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki, sirtqi, maxsus sirtqi) o'qish shakli uchun kreditlar miqdori kunduzgi o'qish shakli kreditlariga mos qilib olinadi.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

O'quv davrlari	Sog'liqni saqlash ta'lim sohasidan tashqari barcha ta'lim sohalari uchun, % hisobida*	Sog'liqni saqlash ta'lim sohasi uchun, % hisobida
Nazariy va amaliy ta'lim	40 — 65	50 — 70
Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limning nisbati	40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha	
Attestatsiya	6 — 15	8 — 15
Ta'til**	8 — 21	10 — 18
Malaka amaliyoti	6 — 25	6 — 20
Bitiruv malakaviy ishi***	2 — 7	2 — 5

* *Ayrim yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ta'lim jarayoni zaruratiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda ular uchun mazkur foizlarga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yiladi.*

** *Qishki ta'til ikki haftadan oshmasligi maqsadga muvofiq.*

*** *Bitiruv malakaviy ishi tarkibiga uni himoya qilish bo'yicha Davlat attestatsiyalari ham kiradi.*

Barcha ta'lim sohalari uchun nazariy va amaliy ta'lim hajmining kamida 85 % umumkasbiy va ixtisoslik (maxsus) fanlaridan tashkil topgan majburiy va tanlov fanlari bloklaridan iborat bo'lishi lozim.

O'quv rejalaridagi majburiy va tanlov fanlari bloklarining hajmini ta'lim yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quv rejani ishlab chiqaruvchi oliy ta'lim muassasasi belgilaydi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ta'lim oluvchilarining malaka amaliyotini o'tash tartibi va bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruv organi tomonidan belgilanadi.

Kredit tizimi xalqaro tamoyillariga asoslanib fanlar katalogini tizimlashtirish va maqbullashtirish maqsadida o'quv rejalarda kreditlar kurs va semestrlar bo'yicha taqsimotini quyidagicha belgilash tavsiya etiladi:

O'quv faniga ajratilgan soat*	Fanning bir va ikki semestr davomida o'tilishiga qarab ajratiladigan kreditlar	
	1-semestr	2-semestr
120	4	-
180	6	-
240	4	4
300	4	6
360	6	6

* *Ushbu taqsimot magistraturaga ham taalluqli.*

6.2. Magistratura.

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining hajmi bir o'quv yili uchun 60 kredit, bir semestr uchun 30 kredit qilib belgilanadi. 1 kredit 30 akademik soat o'quv yuklamasiga tengdir.

Reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasalari uchun barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 akademik soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlari va ilmiy faoliyatning eng yuqori hajmi haftasiga 36 akademik soat qilib belgilanishi lozim.

Uqishning me'yoriy muddati quyidagicha taqsimlanadi:

O'qishning me'yoriy muddati*	Haftalar soni	Kreditlar miqdori	Akademik soatlar miqdori
1 yil	50	60	1800
2 yil	100	120	3600
3 yil	152	180	5400

* Kunduzgi o'qish shakli tayanch sifatida olinadi.

O'qish davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

O'qish davrining tarkibiy qismlari	Sog'liqni saqlash ta'lim sohasidan tashqari barcha ta'lim sohalari uchun, % hisobida*	Sog'liqni saqlash ta'lim sohasi uchun, % hisobida	
		Davolash faoliyati bilan tutashgan mutaxassisliklar	Davolash faoliyati bilan tutash bo'lmagan mutaxassisliklar
Nazariy va amaliy ta'lim	30 — 55	45 — 55	30 — 55
Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limning nisbati	30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha		
Attestatsiya	4 — 18	4 — 10	4 — 10
Ta'tillar**	6 — 21	10 — 20	10 — 20
Ilmiy faoliyat	30 — 55	30 — 40	30 — 55

* *Ayrim yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ta'lim jarayoni zaruratiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda ular uchun mazkur foizlarga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yiladi.*

** *Qishki ta'til ikki haftadan oshmasligi maqsadga muvofiq.*

Ilmiy faoliyat magistratura ta'lim oluvchilarining yakka tartibdagi taqvimiy ish rejasi asosida amalga oshiriladi va quyidagilarga bo'linadi:

ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash — 60 — 75 %;

ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti — 25 — 40 %.

Barcha ta'lim sohalari uchun nazariy va amaliy ta'lim hajmining kamida 95 % umummetodologik va mutaxassislik fanlaridan tashkil topgan majburiy va tanlov fanlari bloklaridan iborat bo'lishi lozim.

Magistratura mutaxassisliklari talabalarining ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi va malaka amaliyoti (tajriba orttirish)ni o'tash tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

7. Kadrlar tayyorlash sifati va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholash

7.1. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari professor-o'qituvchilari tarkibiga qo'yiladigan umumiy talablar.

Bakalavriat o'quv rejasi va o'quv dasturini amalga oshirishda o'qitilayotgan fan bo'yicha tayanch ma'lumotga, bilimga, malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan malakali o'qituvchilar (magistr yoki diplomli mutaxassislar), fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc), professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga ega bo'lgan shaxslar, shuningdek tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

Magistratura o'quv rejasi va o'quv dasturini amalga oshirishda o'qitilayotgan fan bo'yicha fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc) va professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga (darajalarga) ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

7.2. Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish quyidagilardan iborat:

ichki nazorat oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan tegishli ravishda

belgilangan reyting (baholash) tizimi hamda kredit-modul tizimi mezonlarga muvofiq o'rnatilgan tartibda o'tkaziladi;

bitiruvchilarning yakuniy nazorati oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'quv rejalariga muvofiq bakalavriatda o'quv fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi va (yoki) bitiruv malakaviy ishi himoyasi, shuningdek magistraturada magistrlik dissertatsiyasining himoyasi shaklida amalga oshiriladi;

davlat-jamoatchilik nazorati oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruv organi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

tashqi nazorat belgilangan tartibda oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

7.3. Oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini baholash O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini baholash O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi **Qonuni** va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

8. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi

8.1. Malaka talablarining asosiy maqsadi va vazifasi milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, oliy ta'lim bakalavriat va magistratura bitiruvchilarining bilim, uquv, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni belgilash hisoblanadi.

8.2. Malaka talablari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining har biri bo'yicha mazkur davlat standarti, "**Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori**", milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqiladi.

Malaka talablari quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

zarvaraqa (titul varag'i) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining nomi, o'rta qismida ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassislik nomi ko'rsatiladi;

zarvaraqa sirtida malaka talablari kim tomonidan ishlab chiqilgani va kiritilganligi, tasdiqlangani va joriy etilgani hamda hujjat maqomi ko'rsatiladi.

Mundarijada malaka talablarining asosiy boblari ko'rsatiladi.

Ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligining umumiy tavsifi bobida malaka talabining qo'llanish sohasi, asosiy foydalanuvchilari, kasbiy faoliyatlarining tavsifi, bakalavr yoki magistr kasbiy faoliyatining sohalari, obyektlari, turlari hamda kasbiy vazifalari keltiriladi;

Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrning yoki mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar bobida bakalavriat yoki magistratura bitiruvchisi ega bo'lishi zarur bo'lgan umumiy kompetensiyalar hamda kasbiy kompetensiyalar aniq ko'rsatiladi.

Bibliografik ma'lumotlar belgilangan tartibda keltiriladi.

Kelishuv varag'ida malaka talabini ishlab chiqqan tayanch oliy ta'lim muassasasi rektori imzosi hamda uni kelishuv jarayonidan o'tkazgan oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar rahbarlarining imzolari qo'yiladi.

Malaka talablari:

A-4 formatli standart varaqlarining "kitob ko'rinishida ikki tarafga "Times New Roman" shriftining maqbul o'lchamida bostirib chiqariladi;

malaka talablari ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar bilan birgalikda tayyorlanadi hamda Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasidan o'tkaziladi, shuningdek ushbu kengash ijobiy xulosasi olingach O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

tasdiqlangan malaka talablari belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida etalon sifatida, ikkinchi nusxasi tegishli tayanch oliy ta'lim muassasasida saqlanadi hamda undan nusxalar ko'chirilib talabnomalar asosida boshqa oliy ta'lim muassasalariga tarqatiladi.

9. O'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi

9.1. O'quv rejalarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi.

9.1.1. O'quv rejalarining asosiy maqsadi va vazifasi:

o'quv rejasining asosiy maqsadi — davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq yetuk va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga oid o'quv fanlar, ularning hajmi, mashg'ulotlar turlari, o'quv jarayonining mazmuni, tarkibi, muddatlari va o'qitishning mantiqiy ketma-ketligini belgilash hamda tartibga solish;

o'quv rejasining asosiy vazifasi — muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim jarayoni davomida o'quv fanlarini semestrlar va o'quv yillar tarkibida ta'lim oluvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishini ta'minlovchi mantiqiy ketma-ketlikda maqbul holatga keltirish, o'quv faoliyati davri, turlari, soatlar hajmi, kreditlar hamda yakuniy nazorat muddatlarini belgilash.

9.1.2. O'quv rejalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o'quv rejalar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining har biri bo'yicha mazkur davlat standarti, "**Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori**", bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablariga muvofiq ishlab chiqiladi;

o'quv rejalar ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarga oid majburiy va tanlov fanlari belgilangan holda, ularning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, auditoriya (ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya va boshqa mashg'ulotlar) va mustaqil mashg'ulotlar, o'quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari, kurs loyihasi, kurs ishi, ijodiy va boshqa o'quv vazifalari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda, fanlarga ajratilgan kreditlarga amal qilgan tartibda shakllantiriladi;

o'quv rejalar davomiyligi kamida 15 o'quv haftasiga teng semestrlar, har bir semestrdan so'ng 2 — 4 haftalik attestatsiya sessiyalari, tegishli davomiylikdagi malaka amaliyotlari, ta'tillar va boshqa akademik jarayonlar kiritiladi;

o'quv rejalar:

reying (baholash) tizimi uchun jadval shaklida A-4 formatli standart varaqlarining "kitob ko'rinishida ikki tarafga "Times New Romani" shriftining maqbul o'lchamida bostirib chiqariladi;

kredit-modul tizimi uchun jadval shaklida A-4 formatli standart varaqlarining "albom ko'rinishida bir tarafga "Times New Roman" shriftining maqbul o'lchamida bostirib chiqariladi va birlashtirib tikiladi;

zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan tartibda o'quv rejalar boshqa shaklda ishlab chiqilishiga yo'l qo'yiladi;

o'quv rejalar oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanadi va tasdiqlanadi;

tasdiqlangan o'quv rejalar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta'lim muassasasida saqlanadi;

zarur hollarda oliy ta'lim muassasalari tomonidan uquv rejalar qushimcha ravishda fakultativ, maxsus kurs va boshqa turdagi mashg'ulotlar kiritilishi mumkin;

ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejalar ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) ta'lim shaklining tayanch o'quv rejalarini hisoblanadi. Bular asosida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi), masofaviy) ta'lim shakllari

uchun belgilangan tartibda ishchi o'quv rejalar ishlab chiqiladi va tegishli oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ixtiyoriy tarzda ishchi o'quv rejalar quyidagi hollarda ham ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi mumkin:

muayyan ta'lim yo'nalishlar tegishli turlari bo'yicha ajratilishi nazarda tutilganida (masalan, sport turlari);

o'quv rejalarda tanlov fanlarini dolzarbligiga qarab belgilash ehtiyoji mavjudligida.

Ishchi o'quv rejalar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta'lim muassasasida saqlanadi.

9.2. O'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi.

9.2.1. O'quv dasturlarining asosiy maqsadi va vazifasi:

O'quv dasturining asosiy maqsadi — davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning bilimi, uquvi, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yilgan talablarga muvofiq o'quv rejaga kiritilgan muayyan fan tomonidan raqobatbardosh mutaxassislarni sifatli tayyorlash uchun shakllantirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuini belgilash, fan mazmuni va tarkibiy qismlarini tartibga solishdir;

O'quv dasturining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

o'quv faniga oid ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda o'quv mashg'ulotlar mavzularini shakllantirish, ta'lim shakli va o'quv fanga ajratilgan vaqtga muvofiq o'quv materiallarni mavzular va o'quv mashg'ulotlar turlari bo'yicha taqsimlash, maqbul holatga keltirish va optimallashtirish, ularning mantiqiy ketma-ketligini hamda boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta'minlash;

uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizligini, shuningdek, fanning mazmun va mavzulari boshqa ta'lim turlaridagi hamda turdosh yo'nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini ta'minlash;

fanni o'zlashtirish, ta'lim oluvchilarda fanga oid kompetensiyalarni, kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur o'quv-uslubiy shartlar, o'quv adabiyotlar, didaktik materiallarni hamda baholash vositalari va usullari yordamida ta'lim oluvchilar bilimni nazorat qilish shakllarini belgilash.

9.2.2. O'quv dasturda o'quv materiallar ma'ruza, seminar, kollokvium, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda belgilanadi, shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifasiga muvofiq kurs loyihasi, kurs ishi, mustaqil ish, chizma-hisob, ijodiy, laboratoriya va boshqa ishlar ajratilgan vaqt me'yorlariga muvofiq o'quv dasturga kiritiladi.

9.2.3. O'quv dasturi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim:

muqovada oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi nomi, oliy ta'lim muassasasi nomi, "[Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori](#)"ga muvofiq tegishli bilim, ta'lim sohalari va ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)larining kodi va nomlari, harakatdagi o'quv rejasiga muvofiq fanning to'liq nomi, tasdiqlangan sanalari va belgilari ko'rsatiladi;

o'quv dasturining birinchi betida uning asosiy parametrlari (fan kodi, qaysi o'quv yilidan joriy etilganligi, semestr, fanga ajratilgan kreditlar (soatlar), fan turi (majburiy, tanlov), ta'lim tili, haftadagi dars soatlari, fanning nomi, auditoriya va mustaqil mashg'ulotlar hajmi, jami yuklama jadval shaklida belgilanadi;

"Fanning mazmuni" o'quv fanining maqsadi va uning asosiy vazifalari tegishli yo'nalish bo'yicha mutaxassis tayyorlash vazifalariga bog'langan holda bayon etiladi;

"Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)" o'quv fanining mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi, har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va qisqa ifodalar orqali ta'lim oluvchilarga davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va

ko'nikmalar qamrab olingan holda ifodalab beriladi. Asosiy nazariy qism modullar shaklida berilishi mumkin;

“Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar” o'quv fanining mohiyati va nazariy mavzulariga mos ravishda amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarining mavzulari, ushbu mashg'ulotlarni o'tkazish shakllari, unda qo'llanishi tavsiya etiladigan texnologiyalar, usullar, vositalar zarur hollarda muhokama etiladigan mavzular, masalalar, laboratoriya ishlarining mazmuni, maqsadi hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shuningdek, kurs loyihasi va kurs ishlari, ijodiy ishlar mohiyati, mazmuni, maqsadi, mavzulari ularni bajarish shakllari hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shu bilan birga ushbu qismda o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining maqsadi, vazifasi, shakli, mazmuni, amaliyot jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lgan yakuniy ishlar shakli yuzasidan qisqa uslubiy ko'rsatmalar beriladi;

“Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar” qismida mustaqil ta'limning shakli va mazmuni, mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar, mustaqil mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lgan ishlar referat, esse, mustaqil (ijodiy) ish, muammoli ma'ruza va boshqalar keltiriladi;

“Fanni o'qitish natijalari va shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar” qismida ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)ga muvofiq muayyan fan bo'yicha ta'lim oluvchi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bayon qilinadi;

“Talabalar kreditlarni olish tartibi” kredit-modul tizimida fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish (baholash) va kreditlarni olishga oid talablar o'rnatilgan tartibda belgilanadi;

Reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasalari uchun — “Talabalar reytingini belgilash tartibi” reyting tizimida fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish (baholash) tartibi belgilanadi;

“Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari” o'quv faniga oid asosiy darsliklar, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlar, Internet jahon axborot tarmog'i resurslari, dissertatsiya, monografiya hamda boshqa tavsiya etilgan o'quv, ilmiy va uslubiy ma'lumotlar manbalari keltiriladi;

o'quv dasturning oxirgi betida uni ishlab chiqqan oliy ta'lim muassasasi nomi, tuzuvchilar ismi, familiyasi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, taqrizchilar ismi, familiyasi, ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, o'quv dastur ko'rib chiqilgan oliy ta'lim muassasasi kengashi bayonining raqami keltiriladi.

9.2.4. O'quv dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o'quv dasturlar o'quv rejalarda belgilangan har bir o'quv fani bo'yicha mazkur davlat standarti, “[Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori](#)”, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari hamda o'quv rejalarga muvofiq davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

o'quv rejalarga kiritilishi tavsiya etilgan “Falsafa” (tarkibiga “Dinshunoslik” hamda “Korrupsiyaga qarshi kurash” mavzular majmuasi (modullari) kiritilgan holda) va “O'zbekistonning eng yangi tarixi” fanlarining o'quv dasturlari gumanitar fanlar bo'yicha tegishli tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi hamda boshqa oliy ta'lim muassasalari undan foydalanishi lozim;

o'quv dasturlar ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar maqsadi, vazifasi, mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, fan mavzulari va mazmunini belgilangan tartibda mantiqiy ketma-ketlikda, o'quv faniga ajratilgan vaqt me'yoriga amal qilgan holda shakllantiriladi. O'quv dasturlar mazkur davlat standartida belgilangan talablarga javob bergan holda Sillabus shaklida ham ishlab chiqilishi mumkin;

o'quv dasturning matni A-4 formatli standart varaqlarda, “Times New Roman” shriftining 14-o'lchamida, 1,15 intervalda, chap va o'ng tomonidan — 20, pastidan — 25, yuqoridan — 20

mm o'lchamida hoshiyalangan, betlarini raqamlanishi varaqning pastki qismining markazida joylashtirilgan holatda bostirib chiqariladi;

o'quv dasturlari tasdiqlanganidan so'ng A-5 formatida broppora shaklida chiqariladi;

oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlangan o'quv dasturlari oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va o'quv rejalarga muvofiqligi hamda sifati nuqtai nazaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi tomonidan tanlab monitoring va tahlil qilinadi. Monitoring va tahlil natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga olib chiqiladi va ularga baho beriladi;

tasdiqlangan o'quv dasturlar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta'lim muassasasida saqlanadi;

ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv dasturlar (sillabuslar) ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) ta'lim shaklining tayanch o'quv dasturlari hisoblanadi. Bular asosida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi), masofaviy) ta'lim shakllari uchun belgilangan tartibda ishchi o'quv dasturlar ishlab chiqiladi va tegishli oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.